



KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA METAFORA KONSEPTUALIZATSIYA VOSITASI SIFATIDA: INGLIZ VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGI TAJRIBASI

Mattiyev Abdulaziz Oktyabrjon o'g'li,
Andijon davlat chet tillari instituti,
Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasida dotsenti.
mattiyev1@gmail.com
+998938711311

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1602>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 42

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Kognitiv tilshunoslik, konseptual metafora, manba domeni, maqsad domeni, kognitiv xaritalash, konseptualizatsiya, universallik, milliy-madaniy manzara, tasvir sxemasi, konseptual integratsiya

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada kognitiv tilshunoslikning fundamental masalalaridan biri — metaforaning dunyoni konseptualizatsiya qilishdagi o'rni va uning kognitiv mexanizm sifatidagi tabiati ingliz va o'zbek tillari misolida tadqiq etiladi. Tadqiqotda metaforaga an'anaviy poetik trop yoki nutq bezagi emas, balki inson tafakkurini shakllantiruvchi va mavhum tushunchalarni (vaqt, sevgi, maqsad) aniq empirik tajriba orqali idrok etishga xizmat qiluvchi tizimli xaritalash (mapping) vositasi sifatida yondashiladi. Maqolada J. Lakoff, M. Jonson va Z. Koveches kabi olimlarning nazariy qarashlari, xususan, konseptual metafora nazariyasining shakllanishi, tasvir sxemalari, invariants prinsipi va konseptual integratsiya (blending) modellari atrofida tahlil qilinadi. Muallif metaforik modellarning (tarkibiy, yo'naltiruvchi, ontologik) universallik va milliy-madaniy variativlik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish orqali, til egalari ongida shakllangan madaniy ssenariylarni ochib berishni maqsad qilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, metafora tahlili faqat formal o'xshashlikni qayd etish emas, balki shaxsning amaliy tafakkurini yo'naltiruvchi konseptual proyeksiyalarni o'rganishni talab etadi. Maqola kognitiv tilshunoslik, qiyosiy tilshunoslik va madaniyatshunoslik yo'nalishida izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun nazariy-metodologik manba bo'lib xizmat qiladi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 42

KEYWORDS

Cognitive linguistics, conceptual metaphor, source domain, target domain, cognitive mapping, conceptualization, universality, national-cultural worldview, image schema, conceptual blending

ANNOTATION

This article investigates one of the fundamental issues in cognitive linguistics: the role of metaphor in world conceptualization and its nature as a cognitive mechanism, drawing on the experiences of English and Uzbek linguistics. The study approaches metaphor not as a traditional poetic trope or rhetorical ornament, but as a systematic mapping tool that shapes human cognition and facilitates the perception of abstract concepts (time, love, goals) through concrete empirical experience. The article provides a comprehensive analysis of the theoretical perspectives of scholars such as G. Lakoff, M. Johnson, and Z. Kövecses, specifically focusing on the formation of Conceptual Metaphor Theory, image schemas, the invariance principle, and conceptual integration (blending) models. The author aims to reveal the cultural scenarios formed in the minds of native speakers by comparatively examining the universality and national-cultural variability of metaphorical models (structural, orientational, and ontological). The research findings indicate that metaphor analysis requires exploring conceptual projections that guide a person's practical reasoning rather than merely noting formal similarities. The article serves as a theoretical and methodological resource for researchers specializing in cognitive linguistics, comparative linguistics, and cultural studies.

Kirish. Kognitiv tilshunoslik doirasida metafora insonning kundalik tafakkur tamoyillariga chuqur singib ketgan konseptual tizim, ya'ni kognitiv xaritalash mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, inson ongi argument, vaqt, sevgi, maqsad va hayot singari mavhum hamda murakkab konseptual sohalarni nisbatan aniq, empirik tajribaga asoslangan barqaror manba domenlari orqali idrok etadi.

Metafora fenomenining mohiyatini tadqiq etish azaldan falsafa va tilshunoslik fanlarining markaziy masalalaridan biri bo'lib kelgan. Xususan, antik davr ilmiy tafakkurida, xususan, Arastu ta'limotida metafora, asosan, nutqning estetik jozibasini oshiruvchi bezak vositasi — an'anaviy poetik trop sifatida baholangan. Biroq zamonaviy kognitiv paradigma bu qarashni yanada kengaytirib, metaforani inson dunyoqarashini shakllantiruvchi va borliqni konseptualizatsiya qiluvchi muhim kognitiv qurol ekanligini asoslab berdi [1, 224-b].

Adabiyotlar tahlili. Kognitiv tilshunoslikka oid manbalarni tahlil etar ekanmiz, J. Lakoff [2, 202-251 b.] va M. Jonson [3, 272] kabi olimlar tilshunoslikning mazkur yo'nalishida burilish yasanlari. Konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, mazkur kognitiv xaritalash bo'yicha mosliklar bevosita insonning kundalik empirik tajribasiga tayanadi. Shu sababli, metafora she'riyat va badiiy nutqning estetik usuri bo'lib qolmay, oddiy muloqot diskursida muntazam uchraydigan hamda shaxsning amaliy tafakkurini yo'naltiruvchi fundamental kognitiv mexanizmdir.

Bu nazariy paradigma metaforani turli konseptual sohalar o'rtasidagi tizimli proyeksiyalanish sifatida talqin qiladi. Xususan, *Argument is war* (*Bahslashish — bu jangdir*) kabi modellarda jang domeniga xos bo'lgan strategik va taktik struktural bahs-munozara domenida fikr yuritishning barqaror kognitiv jihatlarini faollashtiradi. Xuddi shunday, *Theories are*

buildings (*Nazariyalar — bu bino*) konseptual modelida murakkab intellektual tuzilmalar va ilmiy tushunchalar moddiy inshootlarni barpo etish sohasi orqali idrok etiladi. Natijada intellektual jarayonlarni *nazariyaning mustahkam poydevori, dalillar tizimini qurish, asossiz farazlarning qulashi* yoki *g'oyani tayanchlar bilan mustahkamlash* kabi arxitektura xos mantiqiy xulosalar yordamida ifodalash til egalari uchun o'z-o'ziidan tabiiy holatga aylanadi.

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda qiyosiy-tavsifiy va kognitiv-semantik tahlil usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Misollar sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi autentik matnlar, leksikografik manbalar hamda ilmiy korpuslardan tanlab olingan metaforik ifodalar xizmat qildi. Misollar tahlilida J. Lakoff va M. Jonson tomonidan ishlab chiqilgan konseptual xaritalash modeli qo'llanilib [12], manba va maqsad domenlari o'rtasidagi proyeksiya aloqalari batafsil tasvirlandi.

Metaforik modellarni tasniflashda tarkibiy, yo'naltiruvchi va ontologik metaforalar uchta asosiy kategoriya sifatida qabul qilindi. Ushbu tasnif Z. Kovechesning metodologik mezonlariga tayanadi [10]. Tadqiqot jarayonida ikkala tildagi metaforik ifodalar o'rtasidagi umumiy va farqlovchi xususiyatlar universallik va madaniy o'ziga xoslik nuqtai nazaridan qiyosiy tahlil qilindi. Matnlardan olingan misollar semantik xaritalash usuli yordamida tahlil qilinib, har bir metaforik model uchun manba domeni, maqsad domeni va ularning o'rtasidagi proyeksiya munosabatlari aniqlanib chiqildi.

Tadqiqotning empirik bazasini ingliz tilidagi ilmiy va badiiy matnlar, so'ngra o'zbek adabiy tili hamda og'zaki nutqdan olingan misollar tashkil etdi. Ikkala tildan olingan materiallar parallel tahlil qilinib, ularning o'xshash va farqli kognitiv yo'nalishlari aniqlandi.

Natijalar. XX asr tilshunosligida konseptual qarashlarda radikal o'zgarishlar yuz bergan. 1936-yilda I. A. Richardsning "Ritorika falsafasi" asarida metaforaning interaktiv nazariyasi taklif qilingan. Olim metaforani ikki fikrning bir vaqtning o'zida ifodalanishi, ya'ni *tenor* va *vehicle* o'rtasidagi o'zaro ta'sir sifatida tavsiflaydi. Bu yondashuv metaforani fikrlash vositasi sifatida ko'rishga imkon berdi [11, 138-b].

Lakoff va Jonsonning *Metaphors We Live By* [12, 242-b] asari metaforani badiiy nutqning bezak vositasi sifatida tor doirada sharhlashdan voz kechib, uni inson tafakkurining konsept hosil qiluvchi mexanizmlaridan biri sifatida asoslab berdi. Mazkur yondashuvga ko'ra, metafora til sathida kuzatiladigan ko'chma ifodaning oddiy namoyoni bo'lib qolmay, bilish jarayonida bir tajriba sohasi orqali ikkinchi tajriba sohasini anglashga xizmat qiluvchi konseptual proyeksiyadir. Shu ma'noda manba domeni va maqsad domeni o'rtasidagi bog'lanish insonning jismoniy, ijtimoiy va madaniy tajribasi bilan motivatsiyalanadi. Keyingi bosqichda Mark Jonsonning *The Body in the Mind* [8] asari tasvir sxemalari tushunchasini markaziy nazariy birlik sifatida ilmiy muomalaga olib kirdi va ma'no, tasavvur hamda ratsionallikning tanaviy tajribaga tayanuvchi asoslarini ochib berdi. Invariants prinsipi esa aynan Jorj Lakoff tomonidan 1990-yilda alohida nazariy qoida sifatida ishlab chiqilgan bo'lib, u metaforik proyeksiyada manba domenining ichki tuzilishi maqsad domeniga tartibsiz ko'chirilmasligini, balki maqsad domenining konseptual uyg'unligiga mos holda saqlanishini ko'rsatdi. Lakoffning keyingi ishlari hamda Lakoff va Tyornerning poetik metafora haqidagi tadqiqotlari [13, 230-b] shu fikrni kengaytirib, kundalik tafakkur, poetik obraz va madaniy bilish o'rtasidagi ichki aloqadorlikni yanada ravshanlashtirdi.

Konseptual metaforaning universal va milliy-madaniy ko'rinishlarini tizimli o'rganishda Zoltan Kovechesning ilmiy ishlari alohida nazariy ahamiyat kasb etadi. Olimning *Metaphor in Culture* nomli tadqiqotida metafora tizimi bir tomonlama universal model sifatida talqin qilinmaydi, aksincha, u inson tajribasiga tayanuvchi umumiy asoslar bilan bir qatorda, muayyan jamiyatning tarixiy xotirasi, ijtimoiy amaliyoti, qadriyatlar tizimi va emosional tajribasi bilan boyitiluvchi ko'ppatlamli hodisa sifatida yoritiladi. Z. Koveches metaforik modellar tarkibida universallik va variativlik bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishini ko'rsatib, ayrim konseptual metaforalar ko'plab tillarda o'xshash asosga ega bo'lib, ularning leksik namoyoni, semantik urg'usi va diskursiv faolligi turli madaniyatlarda farqlanishini isbotlaydi. Uning *Metaphor: A Practical Introduction* [10] asari bu qarashlarni umumlashtirib, konseptual metafora nazariyasining asosiy birliklari bo'lgan proyeksiya, tizimlilik, yo'nalganlik, tajribaga asoslanganlik va diskursiv faolligi kabi tushunchalarni aniq metodologik mezonlar bilan tavsiflaydi [14]. Shu bois ingliz va o'zbek tillaridagi metaforik modellarning qiyosiy tadqiqida faqat formal o'xshashlikni qayd etish yetarli bo'lmaydi — til egalari ongida shakllangan tajriba modeli, madaniy ssenariy va konseptual urg'uning nuqtalarini ham ochish talab qilinadi. Aynan mana shu yondashuv milliy til manzarasi doirasida muhabbat, vaqt, bilish, hayot, yo'l, qalb singari konseptlarning qanchalik umumiy va qanchalik madaniy jihatdan xoslanganligini aniqlash uchun mustahkam nazariy poydevordir.

Konseptual metaforaning ishlash mexanizmi to'rtita asosiy tarkibiy qismdan iborat: birinchisi – manba sohasi (source domain): odatda aniq, tajriba asosida yaxshi ma'lum bo'lgan soha, masalan, fazo, harakat, issiqlik, kurash; ikkinchisi – maqsad sohasi (target domain): ko'pincha mavhum, murakkab yoki kamroq aniq anglashiladigan soha, masalan, vaqt, g'oyalar, hissiyotlar, hayot; uchinchisi – o'xshashlik (mapping): manba sohasining tuzilmasi maqsad sohasiga proyeksiya qilinadi; to'rtinchisi – asosiy tajriba (experiential basis): metaforaning jismoniy yoki madaniy tajribadagi mustahkam asosi.

Zoltan Koveches tomonidan batafsil tahlil qilinganidek [10], konseptual metaforalar uch turga bo'linadi: *tarkibiy metaforalar (structural metaphors)* – bir tushunchaning tuzilmasi yordamida boshqa tushunchani tushunishni anglatadi (masalan, *hayot – bu sayohat*); *yo'naltiruvchi metaforalar (orientational metaphors)* – ko'pincha fazoviy yo'nalishlarni ifodalaydi (masalan, *salbiy – past, ijobiy – yuqori*); *ontologik metaforalar (ontological metaphors)* – mavhum hodisalarga

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aristotel. Ritorika. Poetika. – Moskva: Labirint, 2000. – 224 b.
2. Lakoff, G. The contemporary theory of metaphor // *Metaphor and Thought* / ed. by A. Ortony. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – P. 202–251.

jismoniy xususiyat beradi, ya'ni g'oyalar, his-tuyg'ular va jarayonlar predmet yoki modda sifatida tasavvur qilinadi.

Ingliz tili kognitiv lingvistikasida konseptual metaforalar keng va chuqur o'rganilgan. Lakoff va Johnsondan boshlab, ingliz tilidagi metaforaning sistematik tahlili konseptual metafora nazariyasining asosiy empirik asosini tashkil qilgan. Masalan, Vaqt – resurs metaforasi ingliz tilidagi *"spend time"*, *"waste time"*, *"save time"*, *"budget your time"* kabi iboralarda namoyon bo'lib, vaqtning mavhum mohiyatini moddiy kategoriyalar orqali tushuntiradi. Hayot – sayohat metaforasi ingliz tilidagi *"We've come a long way"*, *"I'm at a crossroads in my life"* kabi ifodalarni qamrab oladi. G'azab – idishidagi qaynayotgan suyuqlik metaforasi *"he was boiling with anger"*, *"she was fuming"* iboralarda namoyon bo'lib, hissiyotlarning mavhum tabiatini jismoniy-fazoviy kuch yoki moddalar orqali tushuntirishga asoslangan.

Muhokama. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz va o'zbek tillarida bir qator konseptual metaforalar umumiy tajriba asosiga ega bo'lsa-da, ularning leksik ifodalanishi va madaniy urg'usi sezilarli farq qiladi. Masalan, *Hayot – sayohat* metaforasi ikkala tilda ham keng tarqalgan, ammo o'zbek tilidagi "yo'l" va "safar" konseptlari islomiy va milliy-madaniy mazmun bilan boyitilgan. Xuddi shunday, *G'azab – issiqlik* metaforasi ham ikkala tilda kuzatiladi, lekin ifodalanish shakllari va madaniy konteksti har xil. Bu kuzatuvlar Z. Kovechesning metaforalar universalligi va variativligi haqidagi nazariy xulosalarini [10], [14, 375] empirik jihatdan tasdiqlaydi.

Muhokama shu narsani ham ko'rsatadiki, birlamchi metaforalar (J. Grady tasnifi bo'yicha) madaniyatlararo universal xarakter kasb etsa, murakkab metaforalar madaniy-tarixiy kontekst ta'siriga ko'proq moyil bo'lib, o'ziga xos shakllanadi. O'zbek tilida *Vaqt – muqaddas narsa*, *Hayot – imtihon* kabi metaforalar islomiy qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog'liqligi aniqlandi. Bu esa qiyosiy kognitiv tadqiqotlarda faqat til birliklarini emas, balki madaniy-tarixiy kontekstni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, konseptual integratsiya (blending) nazariyasi nuqtai nazaridan qaraganda [9], ikkala tilda ham yangi metaforik ifodalar hosil bo'lishi jarayoni o'xshash kognitiv mexanizmlarga tayanadi. Biroq yakuniy natijalar – yangi ma'nolar va metaforik ifodalar – ko'pincha madaniy jihatdan farqli bo'ladi. Bu holat qiyosiy kognitiv tadqiqotlar doirasida katta amaliy ahamiyatga ega: tarjimon va lingvokulturologlar uchun metaforik modellarning madaniy variativligini bilish zarur ko'nikmaga aylanadi.

Xulosa. Kognitiv tilshunoslik sohasida G. Lakoff va M. Jonsonning ishlari fundamental nazariy bazani barpo etgan bo'lib, Zoltan Koveches, Mark Tyorner, Jilles Fokonner, Kristofer Jonson, Alan Siyenki, Klaudia Mueller kabi olimlar ushbu nazariyani yanada rivojlantirdi va turli tillarda metaforaning universal va madaniy-maxsus tomonlarini o'rganish bo'yicha keng empirik tadqiqotlar olib bordi.

Ayniqsa, M. Tyorner va G. Fokonner tomonidan ishlab chiqilgan konseptual integratsiya nazariyasi konseptual metafora nazariyasini yanada rivojlantirishga xizmat qildi. Bu nazariyaga ko'ra, metaforik fikrlash jarayonida faqat manba va maqsad sohalari o'rtasidagi o'xshashlik emas, balki ularning aralash makonda ijodiy sintezi ham tuzilmalar va umumiy generic tuzilmaning o'ziga xos sintezi natijasida vujudga keladi va ko'pincha kutilmagan yangi ma'noni yuzaga keltiradi. Ular bu mexanizm orqali *"Bu jarayon hayotimni barbod qildi"* (*This operation has ruined my life*) kabi yangi va ijodiy metaforik ifodalarning hosil bo'lishini asoslashga harakat qildi.

J. Grady tomonidan taklif qilingan birlamchi metaforalar tushunchasi konseptual metafora nazariyasini yanada kengaytirdi. Birlamchi metaforalar jismoniy tajribaning bevosita natijasidir: *Mehr-muhabbat – bu ilqlik* metaforasi bolalikning jismoniy issiqlik va ota-ona g'amxo'rliги birgalikda idrok etilishidan kelib chiqsa, *Bilish – bu ko'rish* metaforasi esa vizual persepsiya bilan tushunish jarayonining korrelyatsiyasidan hosil bo'lib, madaniyatlararo universal xarakter kasb etadi. Murakkab metaforalar esa madaniy farqlanishga ko'proq moyil bo'lib, o'zbek va ingliz tillari qiyosiy tahlilida bu xususiyat yaqqol namoyon bo'ladi.

3. Johnson, M. *The Body in the Mind: The Bodily Basis of Meaning, Imagination, and Reason.* – Chicago: University of Chicago Press, 1987. – 272 p.

4. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодалашнинг синтаксис усули. – Тошкент: Фан, 1987. – 307 б.

5. Абдуллаев А. ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Тошкент: Фан, 1983. – 393 б.
6. Аристотель. Риторика. Поэтика. – М.: Лабиринт, 2000. – 224 с.
7. Асқарова М. ўзбек тилида қўчма маъно ҳосил бўлишининг семантик-когнитив асослари: филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент, 2009. – 56 б.
8. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 200 б.
9. Fauconnier, G., Turner, M. The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities. – New York: Basic Books, 2002. – 440 p.
10. Kövecses, Z. Metaphor: A Practical Introduction. – New York: Oxford University Press, 2002. – 285 p.
11. Richards, I. A. The Philosophy of Rhetoric. – Oxford: Oxford University Press, 1936. – 138 p.
12. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
13. Lakoff, G., Turner, M. More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. – Chicago: University of Chicago Press, 1989. – 230 p.
14. Kövecses, Z. Metaphor: A Practical Introduction. – 2nd ed. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 375 p.